

EMOJILAR HIS-TUYG'ULARIMIZNI QANCHALIK DARAJADA IFODALAYDI?

Samarqand davlat chet tillari institutit

Narpay xorijiy tillari fakulteti

2305 guruh talabasi

Isaqova Sarvinozxon Burxon qizi.

Ilmiy rahbar: Narpay xorijiy tillar fakulteti

o'qituvchisi D.D.Ne'matova

Annotatsiya: Ushbu maqolada emojilar, ya'ni hisbelgilar haqida qisman ma'lumotlar, ularning qanday paydo bo'lgani va qanday bizning hayotimizga kirib kelgani haqida so'z boradi. Hisbelgilarning bugungi kundagi o'rni, ahamiyati va ta'siri ya'ni ular haqiqatan ham bizning his-tuyg'ularimizni ifodalashda yordam bera olishi yoki bera olmasligi haqida fikr yuritamiz.

Annotation: *This article is about partial information about emojis, that is, emoticons, how they appeared and how they entered our lives. We consider the importance and influence of emojis today, that is ,whether or not they can really help us to express our feelings.*

Аннотация: В данной статье представлена частичная информация об эмодзи, то есть смайлах, о том, как они появились и как вошли в нашу жизнь. Сегодня мы рассматриваем место, важность и влияние смайлов, то есть могут ли они действительно помочь нам выразить наши чувства.

Kalit so'zlar: *Emojilar, veb-sahifalar, Yaponiya, pictogrammalar, klaviatura, smayliklar, elektron aloqa.*

Emoji (yaponcha so'zdan olingan bo'lib, yaponcha: 絵 — „rasm“ va 文字 - „belgi“; talaffuzi: [emodzi]) elektron xabarlar va veb-sahifalarda qo'llanilish uchun ishlatiladigan pictogrammalardan iborat ideogrammalar tilidir. So'zlar o'rniga rasmlar kombinatsiyasi foydalanish , eng avvalo, Yaponiyada paydo bo'ldi va sekin-asta butun dunyoga tarqala boshladi. Dastlab, emojilar ASCII smayliklari kabi bir xil funksiyada ishlatilgani uchun pictogramma tiliga o'xshatildi. Ammo bu belgilar ya'ni emojilar qo'llanilishi bilan yanada keng qamrovli xususiyatga ega bo'ldi: pictogrammalar kompyuter hamda mobil qurilmalarda mavjud bo'lgan klaviaturada standartlashtirildi. Ba'zi emoji belgilari yapon madaniyatida o'ziga xos ma'noga ega: masalan, ta'zim qilgan biznesmen, yoriten, oq gul — „uy vazifasi yaxshi tayyorlanganini“, yoki mashxur taomlar uchun maxsus belgilari: ramen, dango, onigiri va sushi emojilari ishlatilar edi.

Emojilardan farqli o‘laroq, smayliklar tipografik vositalar yordamida hissiyotlarni tasvirlash vositasi sifatida smaylik foydalanuvchilar tomonidan yaratildi. Biroq, ba’zida yuz tasvirini ifodalovchi emojilari smayliklar deb ham atala boshlandi. Birinchi emojilar 1998-1999-yillarda Shigetaka Kurita NTT DoCoMo kompaniyasi i-mode mobil internet platforma tarmoqlarida ishga tushirilgan. Emoji belgilarning birinchi to‘plami elektron aloqani osonlashtirish uchun i-mode xabar almashish funksiyalarining bir qismi sifatida ishlab chiqilgan. Bu yangilanish i-mode platformasini boshqa platformalardan ajratib turadigan xususiyatiga aylandi.

Biroq, 1997-yilda Nikolas Laufrani mobil texnologiyalarda ASCII smayliklarining tobora ommalashib borayotganini payqab, raqamli aloqada yanada interfaol foydalanish hamda ularni takomillashtirish uchun oddiy tinish belgilaridan foydalangan holda dastlab mavjud bo‘lgan ASCII-smayliklarga mos keladigan rangli piktogramma yaratish uchun jonlantirilgan emojilarni sinab ko‘rishni boshladi. Laufrani birinchi grafik emojilari: „Klassik uslubdagi“, „Hissiyotlar“, „Bayroqlar“, „Bayramlar“, „O‘yin-kulgi“, „Sport“, „Ob-havo“, „Hayvonlar“, „Oziq-ovqatlar“, „Millatlar“, „Kasblar“, „Sayyoralar“, „Burchlar“, „Chaqaloqlar“ kabi alohida toifalarga bo‘lib onlayn lug‘atini shakllantirdi. Bu tasvirlar birinchi marta 1997-yilda Amerika Qo‘shma Shtatlar Mualliflik huquqi idorasida ro‘yxatga olingan va 1998-yilda Internetda gif fayllari sifatida joylashtirildi. Va ilk bor bu hodisa tarixda texnologiyada qo‘llaniladigan birinchi grafik emojilari bo‘lgan. Emoji zamonaviy dunyoda deyarli barchasini bir darajaga yoki boshqasiga ishlatadigan yoqimli belgilar. Birinchi kulgilarni yaratuvchisi Skott Falmanning fikricha, ushbu grafik belgilarning asosiy afzalliklaridan biri bu sizga joyni tejash imkonini beradi, xususan, belgilar soni cheklangan aloqa dasturlarida bu muhimdir. Va kulgichlar va kulgichlar so‘zlarga yangi soya qo’shamdi. Shu sababli, odamlar ushbu belgilarni stilistik aloqa elementi sifatida ishlatishni boshladilar va ba’zi piktogrammalar 21-asrning ilg’or ieroglyphlariga aylandi.

Aynan bizning jamiyatimizda ham zamonaviy texnologiyalar rivojlanishi bilan birga turli xil funksiyalar ham paydo bo’lmoqda. Avvallari telefondan faqatgina aloqa vositasi sifatida foydalanilgan bo’lsa, hozir esa har qanday vazifani oddiygina gadget orqali amalga oshirmoqdamiz. Jumladan, masofadan turib gaplashish, rasm va videolar olish, ovozli va yozuvli xabarlar jo’natish. Aynan mana shu yozuvli xabarlarni yuborish paytida emojilarni ham qo’shib yuborish menimcha hammaning odatiga aylangan. Chunki emojilar bizning holatimizni, kayfiyatimizni va aytmoqchi bo‘lgan gaplarimizni aniq ko’rsatib bera oladigan vositalardan biridir.

Bundan tashqari, hisbelgilar orqali biz tez va oson tarzda o’zimizni ifodalay olamiz, ya’ni agar biz kimgadir yig’layotgandek emoji jo’natsak u albatta biladiki biz yaxshi holatta emasmiz. Odatda insonlarning kayfiyati yo’q bo’lsa ko’pchilikka bu haqida aytma olmaydi, chunki u aslida nimani his qilyapti, ularni so’z orqali ifodalash

mushkul va aynan shunday vaziyatlarda emojilar bizga katta yordam bera oladi. Chunki kim bilandir yozishayotgan paytda hech qanday emojilarsiz his-tuyg'ularimizni qanday qilib ifodalaymiz, agarda biz judayam xursand bo'lsak buni bildirish uchun bizda emojilarning har xil varianti bor, lekin agarda ular yo'q deb tasavvur qiladigan bo'lsak bizning yozishmalarimiz zerikarli tuyula boshlaydi. Chindan ham, jonli muloqot paytida ham hissiyotlarsiz suhbatlashgan inson bilan qayta suhbat qurgingiz keladimi? Albatta, yo'q shundaymi? Xuddi shunga ko'ra hissiyotlarsiz yozishmalardan ham inson tez zerikadi.

Buni turli xil misollar orqali ham ko'rishimiz mumkin, masalan siz do'stingizga yoki biror bir yaqin insoningizga uni yaxshi ko'rishingiz haqida aytmoqchisiz va bu uchun yozuvlardan foydalanyapsiz va yozuv orqali ularni siz qay darajada yaxshi ko'rishingizni qanday bildira olasiz. Chunki shunchaki "Men sizni yaxshi ko'raman, onajon" deyish bilan "Men sizni yaxshi ko'raman onajonim" (yurakchali emoji yoki kulib turgan emoji) kabi xabarlar orasida ancha farq bor. Emojilar bilan yozuvlarimiz yanada to'liq, jozibali va ishonchli chiqadi.

Ayniqsa hozirgi vaqtida insonlar shu darajada o'rganib qolishganki, agarda emojilardan foydalanmay yozuv jo'natsangiz sizni jiddiy odam sifatida tanishadi mana shu emojilarning bizning hayotimizdagi o'rni, ahamiyati va qanchalik bizga o'z ta'sirini o'tkazib bormoqda.

To'g'ri har kimda savol tug'ilishi mumkin foydalanoyatgan emojilarimiz chindan ham shaxsiyatimizni tasvirlay oladimi, biz qanchalik ularga ishonishimiz kerak? Ha, bu albatta o'rinali savol. Yuqorida aytib o'tganimizdek emojilar hayotimizga sezilarli ravishda ta'sir o'tkazdi va ularning ahamiyati biz o'ylaganimizdanda katta. Bu savolga menimcha har kim o'z holatidan kelib chiqqan holda fikr bildirsa yaxshi deb hisoblayman va shu o'rinda men uchun bu u qadar o'ylantiradigan va tashvishga soladigan narsa emas. Aksincha emojilar borligi va ulardan foydalanishni davom ettirish tarafdiriman. Chunki ular insonlar bir-biri bilan yanada yaqin munosabatda bo'lishini, yanada iliq suhbat qurishini ta'minlamoqda. Albatta ishonch bilan ayta olamanki, emojilar har bir kishining his-tuyg'ularini va shaxsiyatini aniq qilib ko'rsatib bera oladi.

Yaqinda o'tkazilgan bir tadqiqotga ko'ra, emojilardan odamlarning 92% foydalanadi, bu ularning veb-sayt dizaynini nihoyatda jozibali qiladi. Ba'zi foydalanuvchilar bilan o'rganish egri chizig'iga qanchalik tez-tez ta'sir qilish kerakligini hisobga olsak, ko'pchilik allaqachon tanish bo'lgan dizayn elementiga tayanish yaxshi bo'lar edi. Emojidan foydalanishning boshqa afzalliklari ham bor: Ular minimalizm nuqtai nazaridan juda yaxshi, chunki siz oddiy belgi bilan ko'proq narsani ayta olasiz. 2007 yilda o'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, kulgichlar (tabassum yuzi emojisga teng) tana tiliga o'xshash maqsadga ega. Aslida, og'zaki yoki yozma so'zlarni tushunishni yaxshilaydi.

Xulosa: Zamonaviy, texnologik jamiyatning bir bo'lagi sifatida shuni aytishim mumkinmi, barchamiz ijtimoiy hayotga va ijtimoiy yashash tarziga haddan tashqari berilib ketganmiz. Shu bois men ko'proq emojilarning yaxshi tomonlarini yoritib berishga harakat qildim. Chunki ularsiz ham insonlar bir-biri bilan bo'lган aloqa va munosabatlarining sifati ancha susayib bormoqda ya'ni bularga emojilarning hech qanday dahli yo'q aksincha ular bizga bularni saqlashga yordam bermoqda va oson variantta aytmoqchi bo'lган so'zlarimizni ifodalab bermoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1 emoji – Google play MARKET.android.com. Qaraldi 2012-yil 9-noyabr.

2 emoji support by Apple

3 Josh Konstine

4 New in LABs : extra emoticons.